

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Karimova Zulxumor Husanboy qizi**

*Qo'qon universiteti, Ta'lif fakulteti, Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi  
4-bosqich talabasi E-mail: [zulhumorkarimovaali@gmail.com](mailto:zulhumorkarimovaali@gmail.com)*

**Umurzakova Kommuna Xursanova**

*Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi, E-mail: [ukommuna@gmail.com](mailto:ukommuna@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi yoritilgan. Muallif o'qish faoliyatining turli bosqichlarida uchraydigan muammolarni tahlil qilgan holda, o'quvchilarining matnni tushunish, tafakkur yuritish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotda ilg'or pedagogik texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar va zamonaliv yondashuvlar orqali o'qish qobiliyatini rivojlantirish yo'llari ochib berilgan. Shuningdek, metodik tavsiyalar va amaliy misollar orqali o'qituvchilarga foydali yo'rinqomalar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lif, o'qish qobiliyati, metodika, tafakkur, matnni tushunish, ijodiy topshiriqlar, ta'lif texnologiyalari, o'qitish samaradorligi

**Annotation:** This article addresses the issue of developing reading skills among primary school students. The author analyzes the challenges encountered at various stages of the reading process and emphasizes the importance of fostering students' abilities to comprehend texts, think critically, and develop independent reasoning. The study outlines methods for enhancing reading skills through the use of advanced pedagogical technologies, creative tasks, and modern approaches. Furthermore, it offers methodological recommendations and practical examples that can serve as useful guidelines for educators.

**Keywords:** primary education, reading skills, methodology, thinking, text comprehension, creative tasks, educational technologies, teaching effectiveness.

### **Kirish**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lif tizimining poydevorini tashkil etadigan guruhdir. Ushbu davrda o'quvchilar nafaqat bilim olishni, balki o'zlarining aqliy va hissiy rivojlanishini ham boshlaydilar. Shuning uchun boshlang'ich sinfda sifatli ta'lif jarayonlarini tashkil etishda psixologik jihatlar muhim ahamiyatga ega. Psixologik jarayonlar o'quvchilarning motivatsiyasini, o'zini ifodalashini, ijodiy fikrlashini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda beqiyos rol o'yaydi. Bu maqolada

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifatli ta’lim jarayonlarini tashkil etishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan psixologik xususiyatlar va usullar tahlil qilinadi.

### **Asosiy qism**

XX asrning ikkinchi yarmida boshlang‘ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik yondashuv g‘oyasi ilgari surilgan. Psixologik izlanishlar esa kichik yoshdag‘i o‘quvchilarning adabiyot dunyosini anglash potentsialini hisobga olgan holda yangicha metodik yondashuvni talab qilmoqda.

Shu asosda adabiy ta’lim metodikasi o‘zining mazmuni va metodlarini belgilashda mustaqil fan sifatida shakllanmoqda.

O‘quvchilarning ta’limga qiziqishini oshirish va ularni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga motivatsiyalashning ta’lim jarayonidagi ahamiyati katta. Psixologik jihatdan qiziqish o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan istagini kuchaytiradi. O‘quvchilar o‘zlarini ta’lim jarayoniga faol jalb qilishlari uchun darslar qiziqrarli, interaktiv va ular uchun motivatsion ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. O‘qituvchilar darslarni faqat bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga moslashtirib, ularda o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otishlari kerak.

O‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga undash, savollarga javob berish va mustaqil fikrlar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. O‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini ifodalashda ba’zan noqulaylik sezadilar, shuning uchun o‘qituvchilar ularning mustaqil fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari kerak. Bu, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va o‘qish jarayoniga faolroq jalb qilishga yordam beradi.

O‘quvchilarga guruh ishlari orqali bir-birlari bilan fikr almashish, muammolarni hal qilish va jamoa bo‘lib ishlash qibiliyatlarini rivojlantirish zarur. Guruh ishlarida o‘quvchilar o‘zaro munosabatlар va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Bu jarayon, shuningdek, o‘quvchilarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatadi, ularga jamiyatda faol ishtirok etish va boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli aloqalar o‘rnatish imkoniyatini beradi. Guruhda ishslash, o‘quvchilarga mas’uliyatni his qilish, o‘z fikrlarini ochiq bayon etish va jamoaviy qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi.

O‘quvchilarga o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va o‘zlariga baho berish imkoniyatini yaratish muhim psixologik jarayondir. O‘z-o‘zini baholash orqali o‘quvchilar o‘z zaif tomonlarini tushunib, ularni yaxshilashga harakat qiladilar. Shuningdek, bu jarayon o‘quvchilarga o‘zlarini va boshqalar haqida adolatli fikr yuritishni o‘rgatadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z faoliyatlarini va natijalari ustida mulohaza yuritish imkoniyatini yaratishlari lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’lim jarayonida emotsional va aqliy rivojlanishning o‘zaro bog‘liq ekani muhimdir. O‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, balki o‘z hissiyotlarini boshqarish va atrofdagilar bilan munosabatlarni o‘rnatish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak. O‘qituvchilar o‘quvchilarga

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hissiy intellektni shakllantirishda yordam berishlari, ularning his-tuyg'ularini tushunish va boshqalar bilan empatiya o'rnatish qobiliyatlarini rivojlantirishlari lozim.

O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini taqdirlash va rag'batlantirish ta'lim jarayonining muhim qismlaridan biridir. O'quvchilarning yaxshi natijalari va yutuqlarini taqdirlash, ularni yanada muvaffaqiyatlarga undaydi. Shuningdek, rag'batlantirish usullari o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sifatli ta'lim jarayonlarini tashkil etish psixologik jihatdan juda muhimdir. Psixologik xususiyatlar, motivatsiya, ko'nikmalar, guruh ishlari va o'z-o'zini baholash kabi omillar o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. O'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos darslar va faoliyatlar tashkil etishlari kerak. Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafaqat bilim olishga, balki o'zini ifodalashga, ijodiy fikrlashga va jamiyatda faol ishtirok etishga motivatsiya qiladi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonlarida psixologik xususiyatlarni hisobga olish ularda muvaffaqiyatli rivojlanishning asosidir.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda xalqimizning hayoti va davlatimiz siyosatida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida milliy qadriyatlarimizni ilmiy rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, jamiyatimizning har tomonlama barkamol, ilmli va intellektual potentsialini oshirish maqsadida ta'lim tizimi yangilanmoqda.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potensiali bilan belgilanadi. Ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonida boshlang'ich ta'lim tizimining roli juda katta. Bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, bilimlarni o'rganish va o'zligini anglash kabi asosiy jihatlarni shakllantirishdir. Bu jarayonni amalga oshirishda pedagoglarimizning o'rni katta.

Boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir. Ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilishda yangi va takomillashtirilgan yechimlarni topishdir. Shu bilan birga, o'qish qobiliyatlar psixologik jarayonlar bilan bog'liqdir, ya'ni diqqat, tafakkur, xotira kabi ruhiy jarayonlar rivojlanishi natijasida o'quvchilarda ijodiy salohiyat shakllanadi.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qish qibiliyatlar faqatgina tug'ma emas, balki tarbiya va ta'lim jarayonida shakllanadi. Shunday ekan, pedagoglarimizning vazifasi shaxsning qobiliyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va o'quvchilarni shaxs sifatida kamol topishga yo'naltirishdir.

O'qish qibiliyatlarni rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rganishga va ularga amaliyotda qo'llashga imkon yaratishdir. O'quvchilarga turli xil mashqlar, rebuslar, shaxmat musobaqalari va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga,

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yosh qalamkashlar to‘garaklari, sport musobaqalari va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali o‘quvchilarda estetik va axloqiy fazilatlar shaklla nadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishslashda, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishda pedagoglar va jamoatchilikning o‘rni katta. Maktabda va maktabdan tashqari faoliyatlar orqali o‘quvchilar o‘z iste’dodlarini rivojlantirishi mumkin. O‘quvchilarning muvaffaqiyatini baholash, ularga turli sovg‘alar va mukofotlar berish esa motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

O‘quvchilarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularda muvaffaqiyatsizlikka bo‘lgan qo‘rquvni yengish va ularni ijobjiy ruhda tarbiyalash kerak.

Qobiliyat – bu shaxsning individual va psixologik xususiyati bo‘lib, uning muayyan faoliyatni bajarishdagi salohiyatini ifodalaydi. Insonning qobiliyatları tug‘ilganidan boshlab, moyilliklar orqali rivojlanadi. Qobiliyatlar ikki asosiy turga bo‘linadi: reproduktiv va ijodiy. Reproduktiv qobiliyatlar ko‘nikmalarni egallash, bilimlarni qo‘llash va mavjud modellarga muvofiq faoliyatni bajarishga imkon beradi. O‘qish qobiliyatlar esa yangi, o‘ziga xos narsalarni yaratish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu davrda bolalarning ijodiy salohiyatlarini turli sohalarda, jumladan, badiiy, musiqiy, texnik va boshqa yo‘nalishlarda rivojlantirish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. O‘qish qobiliyatlarni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

- ❖ Jismoniy va intellektual rivojlanish – o‘quvchilarning umumiyligi rivojlanishini ta’minlash.
- ❖ O‘quvchilarga qulay muhit yaratish – ijodiy fikrlash va faoliyat uchun optimal sharoitlar yaratish.
- ❖ Mustaqil faoliyatga yo‘naltirish – o‘quvchiga o‘z bilim va imkoniyatlaridan foydalanib, mustaqil vazifalarni hal etishga imkon berish.
- ❖ Erkinlik va turli imkoniyatlar – faoliyat turini tanlashda erkinlik, ish yukining almashinishi va bajariladigan ishning xarakteri.
- ❖ Qiying paytlarda yordam ko‘rsatish – o‘quvchini qaror qabul qilishda emas, balki to‘g‘ri qarorga kelishida yordam berish.
- ❖ Ijodiy tashabbuslarni rag‘batlantirish – o‘quvchining shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirish.

Maktabda o‘qish qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ishlar:

- ❖ O‘quv dasturlariga sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan sinf jarayonlari kiritilishi lozim.
- ❖ O‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradigan usul va shakllar qo‘llanilishi zarur.
- ❖ Ota-onalar bilan hamkorlik qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida ijodiy faoliyat doirasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan ishlanmalarini yaratish muhim.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirishda maktabda ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

- ❖ Darslarda o‘qish qobiliatlarni rivojlantirish
- ❖ O‘quvchilarni insholar yozishga, ertaklar yaratishga, krossvordlar va viktorinalar tuzishga jalg qilish orqali ijodiy faoliyatni tashkil etish.
- ❖ O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar va didaktik o‘yinlarni o‘tkazish.
- ❖ Darsslarni interfaol qilish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.
- ❖ Sinfdan tashqari ijodiy faoliyat:
- ❖ Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali bolalar o‘z o‘qish qobiliyatlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunda mavzuli haftaliklar, ekskursiyalar, ijodiy tanlovlardan va bayram tadbirlari tashkil etilishi mumkin.

**To‘garaklar va tanlovlardan:** Fan to‘garaklari orqali o‘quvchilar o‘quv fanlariga qiziqishni oshiradilar va o‘z mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Teatr tomoshalari, viktorinalar, adabiy rasm xonalari va ijodiy tanlovlardan orqali bolalar o‘z xayolotlarini rivojlantiradilar va ijodiy salohiyatlarini kengaytiradilar.

Hozirgi kunda adabiy ta’lim mustaqil fan sifatida shakllanmoqda. Ilgari adabiy ta’lim ona tili o‘qitish metodikasining tarkibida o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kunda adabiyot o‘qitish metodikasi alohida ilmiy-metodik statusga ega bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda ham adabiy ta’lim metodikasini mustaqil fan sifatida ko‘rish zaruriyati mavjud. Shu sababli metodist olimlar ushbu yo‘nalishning ilmiy-metodik asoslarini rivojlantirish ustida ishlamoqdalar.

V.V. Golubkov tomonidan ishlab chiqilgan adabiy ta’lim metodologiyasi quyidagi asosiy savollarga javob beradi:

**Nima uchun o‘rgatish kerak?**

**Nimani o‘rgatish kerak?**

**Qanday o‘rgatish kerak?**

Nima uchun bunday o‘qitish kerak, boshqacha emas?

Bu yondashuv hozirgi zamon metodikasida o‘quvchi nuqtai nazaridan rivojlantirilib, quyidagilarni ta’kidlaydi:

**“Nimani o‘rganyapman?”**

**“Qanday o‘qiyman?”**

**“Nega shu usulda o‘rganyapman?”**

**Metodikaga zamonaviy yondashuv.** 1-sinf o‘quvchilari bilim olishdagiga bo‘shliqlarni to‘ldirish va so‘z san’atini egallashda faqat o‘qituvchi yordamida yo‘nalish oladilar. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga o‘qishning maqsadini tushuntirish, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishdir.

**Asar tahlili: Bosqichli yondashuv.** Badiiy asarlarni tahlil qilish bosqichli izchillik asosida amalga oshiriladi. Masalan, “Arra” metodi:

Asarni qismlarga ajratish. Har bir qism uchun kichik guruhlar tashkil qilinadi.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Mazmunni qayta hikoyalash. Har bir guruh a'zosi o'z qismidagi mazmunni boshqa guruh a'zolariga tushuntiradi.

Savollarga javob berish. Asar yuzasidan berilgan savollar orqali asosiy fikrlarni tahlil qilish.

**Natijalar va Muhokama.** Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari aniq, ilmiy asoslangan metodik ko'rsatmalarni kutmoqda. M.A. Ribnikova metodikani jonli jarayon sifatida talqin etib, quyidagi didaktik qoidalarni keltiradi:

- ❖ Ta'lif har tomonlama o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi lozim.
- ❖ O'quvchilar qo'yilgan masalalarni aniq tushunishi zarur.
- ❖ Murakkab hodisalarni tanish hodisalardek oson tushuntirish mahorati talab etiladi.
- ❖ Deduksiya va induksiyani bog'lash qobiliyati zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, "Bumerang texnologiyasi" va "Arra metodi" o'qish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu texnologiyalar:

- ❖ O'quvchilarning individual yondashuvni hisobga olgan holda o'qitishni.
- ❖ Faoliyatni bosqichma-bosqich kuzatish va baholashni.
- ❖ O'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'linda o'qish qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning shaxsiy fikrlash, ijodiy faoliyat va o'zini anglash qobiliyatlarini ham oshiradi. Bu jarayon, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatib, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi.

### Xulosa

Pedagoglar, ota-onalar hamda jamiyat vakillari o'zaro hamkorlikda harakat qilgan taqdirdagina, o'quvchilarning intellektual salohiyatini to'laqonli rivojlantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida, yosh avlodning ijtimoiy faolligi va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lif jarayonining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi, o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda bilim berish, ularni kelajakda yangi g'oyalar, innovatsiyalar va kashfiyotlar bilan jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shadigan yetuk shaxslar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lif bosqichida o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, nafaqat ularning shaxsiy taraqqiyotiga, balki butun jamiyatning ilmiy-texnikaviy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralishi lozim.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova, s., & numonova, a. (2023). The role of psychology in forming teachers' pedagogical ability. *Academia repository*, 2(11), 46-53
2. Ashurova sh. F. (2023) soglom psixologik turmush tarzi togrisidagi tasvvurlarning shakllanishi "zamonaviy talimda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746> ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyat. Termiz 26-27 aprel 2024 y 444.
3. Bakiyeva h. Boshlangich sinflarda soz ustida ishlash metodikasi. –t.: istiqlol. 2013.
4. Gaynazarova, g. A., & o'g'li pozilov, h. I. (2024, march). Tarbiya–ziroatgoh, hosili–bilim jadid pedagogikasida "turkiy guliston yoxud axloq" asari. In proceedings of international conference on modern science and scientific studies (vol. 3, no. 3, pp. 133-138).
5. Гуломова х. Ўқувчиларнинг матн устида ишлаши// тил ва адабиёт таълими. 1994. №2-3.
6. Ikromjonovna, j. S., & ikromjon o'g'li, p. H. (2024). Ona tili va o'qish darslarida pisa xalqaro dasturidan foydalanish. Kokand university research base, 242-249.
7. K. Qosimova va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –t.: noshir. 2009.
8. Komuna umurzakova. (2025). Изучение наследия алишера навои на уроках. Hamkor konferensiylar, 1(11), 318–324. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/1298>
9. М.п. воюшина, с.а.кислинская, е.в. лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. –м.: -академия. – 2010.
10. Matchonov s., shojalilov a., gulomova x. Va b. Oqish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –t.: yangiyo'l poligraf servis. 2020.
11. Матчонов с. Адабиёт дарсларида таҳлил ва талқин уйғунлиги. Til va adabiyot ta`limi. 2020. 7- son.
12. Olimovich, p. O. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifatli ta'lim berishda interfaol metodlar hamda didaktik o'yinlarning ahamiyati. Ijodkor o'qituvchi, 2(22), 1-28.
13. Umurzakova, k. (2024). Ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy innovatsiyalar: kelajak uchun imkoniyatlar. University research base, 733–737. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/715>
14. Xursanova, u. (2025). The widespread use of slang and abbreviations among youth on social media. Converse journal communication science, 1(3), 5. <Https://doi.org/10.47134/converse.v1i3.3674>

